



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY'ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**

Munavvara KURBANBAYEVA

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)

**TEXNIK MUHARRIR:**

Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)

**BO'LIM MUHARRIRI:**

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.

Indira JOLLIBEKOVA, t.f.d., (PhD)

Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Farrux Abbas o'g'lu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

**Adabiy maslahatchi:**

Guliston MATYOQUBOVA

**Rassom:**

Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2026-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2026-yil, 5-son (80).

**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №36.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



10.69691 DOI



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347

**SLIB.UZ**

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



## XITOI TILI SO‘ZLARIDAGI POLIFUNKSIONALLIK TAMOYILLARI VA 把 “BA” IYEROGLIFI

*Artikova Ziyoda Zaynitdinovna,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD*

[ziyda1978@gmail.com](mailto:ziyda1978@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0008-  
6297-7243

## PRINCIPLES OF POLYFUNCTIONALITY IN CHINESE WORDS AND THE HIEROGLYPH 把 “BA”

*Artikova Ziyoda Zaynitdinovna,  
PhD, Tashkent State University of Oriental Studies*

## ПРИНЦИПЫ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ СЛОВ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА И ИЕРОГЛИФ 把 “BA”

*Артикова Зиёда Зайнитдиновна,  
PhD, Ташкентский государственный университет  
востоковедения*

**Annotatsiya:** Xitoy tilidagi 把 “ba” iyeroglifi leksik jihatdan murakkab, qo‘llanish doirasi keng, moslashuvchan va juda faol ishlatiladigan birliklardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu iyeroglif misolida uning ko‘p ma‘noliligi hamda turli grammatik vazifalarda qo‘llanishi tahlil qilinib, uni polifunksional birlik sifatida o‘rganish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** polifunksionallik, tamoyil, 把 “ba” iyeroglifi, morfologik, ma‘no, til muhiti.

**Abstract:** The Chinese hieroglyph 把 “ba” is considered one of the lexically complex, widely used, flexible, and highly active units in the language. This article analyzes the polysemy of this hieroglyph and its use in various grammatical functions, substantiating the necessity of studying it as a polyfunctional unit.

**Key words:** polyfunctionality, principle, the hieroglyph 把 “ba”, morphology, meaning, language environment.

**Аннотация:** Иероглиф 把 “ba” в китайском языке считается одной из лексически сложных, широко употребляемых, гибких и активно функционирующих единиц. В данной статье на примере данного иероглифа анализируются его многозначность и употребление в различных грамматических функциях, а также обосновывается необходимость его изучения как полифункциональной единицы.

**Ключевые слова:** полифункциональность, принцип, иероглиф 把 “ba”, морфология, значение, языковая среда.

**KIRISH.** Ma'lumki, polifunksionallik, odatda, tilda mavjud so'zlarni turkumlarga ajratish (turkumlash) bilan bog'liq. Ya'ni so'zlar leksik-semantik guruhlarga ajratilgandan so'ng ularning polifunksionalligi haqida gapirish mumkin. So'zlarning polifunksionalligi to'g'risida faqat ularning u yoki bu so'z bilan (hokim-tobelik munosabatida) grammatik jihatdan birikishigina emas, mazkur jarayondagi leksik-frazeologik imkoniyatini ham hisobga olinishi zarur [1]. Jahon tilshunosligida so'zlardagi ko'p ma'nolilik, ba'zi adabiyotlarda keng ma'nolilik tarzida berilayotgan hodisa haqida, ayniqsa, fe'l turkumiga oid so'zlar doirasida anchagina ishlar qilinganligi ma'lum. Bu borada G.V.Kolshanskiy, K.G.Krushelniskaya, D.V.Shevchenkolarining ishlarini [2] alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ayrim ishlarda polifunksionallikning ko'p ma'nolilik bilan bog'liq holda yuzaga kelishi masalalariga to'xtalib o'tilgan. Syuy Xun polifunksional so'zlarning rus tilidan xitoy tiliga tarjimasi bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilgan [3]. Xullas, muayyan tildagi polifunksional so'zlarni turli jihatlardan o'rganish tilshunoslikda keng ko'lam olmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Umumiy tilshunoslikda tipologik tasnif bo'yicha hozirgi xitoy tili izolyativ tillarga mansubdir. Izolyativ tillarning so'z va so'z shakllarida boshqa so'zlarga nisbatan munosabat bildirilmaydi. Shu sababli xitoy tilining o'ziga xos bir qator tipologik xususiyatlari bor. Xitoy tilida so'zlar orasidagi munosabat gap tartibi va yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. Xitoy tilining muhim tipologik xususiyatlaridan bu bo'g'inning o'ziga xosligi, uning morfema va soddasozning tovush qobig'i bo'la olishidadir. Bitta iyeroglifning chegarasi bo'g'in va morfema bilan teng bo'ladi. Agar bir bo'g'inli so'z bo'lsa u bitta iyeroglifga to'g'ri keladi. Shuning uchun xitoy tilida ko'pincha so'zning semantik va grammatik ma'nolari o'rganilganda iyeroglif muhim rol o'ynaydi. Iyeroglifga ham grafik birlik, ham leksik birlik sifatida qaraladi. Lekin iyerogliflar faqat grafik birlik yoki faqat leksik birlik deyilmaydi. Iyeroglif bir necha ma'noni anglatadi va bir necha so'z turkumiga mansub bo'la oladi.

Harfiy tillardagi yozuvda har bir harf asosan yagona tovush birligini ko'rsatadi, iyeroglifik yozuvda esa "bitta iyeroglif butun bir

so'z, bitta morfema, bir bo'g'inni ifodalash uchun xizmat qiladi" [4]. Xitoy yozuvi "iyeroglifik yozuv" bo'lib, xiyoyliklar uni 汉字 [hànzì] (xitoy yozuvi yoki iyerogliflar) deb ataydilar. Tilshunoslikda bu tushuncha "ideografik yozuv" atamasi orqali ifodalanadi. Ideografik yozuv – bu shartli belgilar bo'lib, so'zni anglatadigan simvol hisoblanadi. Shuning uchun ham xitoy iyeroglifi butun so'zni ifodalash uchun xizmat qiluvchi yozuv tizimi hisoblanadi.

Bundan tashqari, iyeroglifning yana quyidagi ifodalovchi bitta jihati bor: "Bitta iyeroglif – tilning muayyan ma'no birligiga tengdir" [4]. Xitoy tilida ma'no anglatuvchi birlik bizning tilimizga o'xshab, bir yoki bir necha bo'g'inli so'zlarga to'g'ri kelishi mumkin. Ba'zan esa bir tovushdan yoki bir necha tovushdan iborat bo'lgan bo'g'in ham ma'no anglatuvchi til birligi bo'lib kela oladi. Masalan: 把 "ba" iyeroglifini olsak, ikki tovushli so'z – bo'g'in, ma'nosi "ushlamoq". O'zbek alifbosida bu so'z ikki harf "ba" bilan ifodalanadi. Grammatik tahlil qilganda, ushbu misol tilning uch birligiga, aynan bo'g'in, morfema va so'zga nisbatan qo'llanishi mumkin.

**NATIJA VA MUHOKAMA.** Xitoy iyerogliflari leksik ma'noga ega bo'lsa-da, hozirgi xitoy tilida ularning hammasi ham so'zga teng bo'lolmaydi. Chunki hozirgi xitoy tilining asosiy qismini ikki bo'g'inli so'zlar tashkil topgan, ya'ni ikkita iyeroglif bilan yoziladigan so'zlar hisoblanadi. Ammo bitta iyeroglif bilan yoziladigan so'zlar ham kam emas.

Xitoy tili 把 "ba" iyeroglifining yozuv shaklida hozirgi ko'rinishiga kelgunga qadar ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xitoy iyerogliflari husnihatini qadimgi 甲骨文 [jiǎgǔwén] – toshbaqa kosalarini va suyaklaridagi bitiklardan boshlanib, 金文 [jīnwén] – bronza idishlardagi bitiklar, 小篆 [xiǎo zhuàn] – kichik muhrli iyeroglif yozuvlar, 隶书 [lìshū] – rasmiy yozuv, 楷书 [kǎishū] – standartlashtirilgan yozuv va 行书 [xíngshū] – yarim tez yozuvi husnihatini kabi bosqichlarini bosib o'tgan. Ushbu bosqichlarda iyerogliflar ustida islohotlar olib borilgan, ular soddalashtirilib bir tartibga keltirilgan. Islohotlarning muhurligi iyerogliflarning ma'lum qoidalar asosida birlashtirish hisoblanib, Xitoyda fan, maorif, madaniyatni rivojlanishiga turtki bo'lgan. Eramizdan avvalgi 221-206-yillardagi

imperator 秦始皇 Qingshihuang tomonidan iyerogliflat ustida amalga oshirilgan islohotlar natijasida vujuga kelgan 小篆 [xiǎo zhuàn] – kichik muhrli iyeroglif husniyatida 把 “ba” quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan.




汉 Xan sulolasi davrining boshida (miloddan avvalgi 206/mil. 220-yillar) 隶书 [lishū] – rasmiy yozuvida 把 “ba” quyidagicha yozilgan.



汉 Xan sulolasining oxirida 楷书 [kǎishū] – standartlashtirilga yozuv husniyatida 把 “vujudga kelib, unda iyeroglifining yozilishi quyidagicha ifodalangan. Bu husniyat imlo chiziqlari yanada aniqligi, shaklan mukammal va ravshanligi, o‘qish va yozishga qulayligi bilan hozirgacha o‘zgarmasdan qo‘llanib kelmoqda.



把 “ba” iyeroglifi husniyat sifatida rivojlanish shakli quyidagicha bo‘lgan.



战国时期 Jangovor davlatlar davrida 把 “bǎ” 1,2-tasvirdagi ko‘rinishga ega bo‘lgan. 3-tasvir 说文解字 [Shuōwén jiězì] – “Iyerogliflar izohi” lug‘atida 小篆 [xiǎo zhuàn] – kichik muhrli iyeroglif husniyatidagi yozilishi berilgan, 4-tasvir 隶书 [lishū] – rasmiy yozuvda va 5-tasvir 楷书 [kǎishū] – standartlashtirilga yozuv husniyatida berilgan.

Iyeroglif faqatgina yozuv uchun ishlatiladigan belgi emas, iyerogliflar yana ma‘no anglatuvchi belgi hamdir. Bizning misolimizda bitta iyeroglif, ya‘ni 把 “ba” iyeroglifi nafaqat o‘zining semantik ma‘nosi ko‘pligi bilan ajralib

turadi, balki uni polifunksional birlik sifatida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Sababi u gapda turli o‘rinlarda kelishiga qarab har xil ma‘nolarni anglatadi.

Xitoy iyerogliflarini (so‘zini) polifunksionallik nuqtai nazaridan o‘rganish, baholash inson nutqini yuzaga keltiruvchi til birliklarining ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, har xil sintaktik qurshovda, xilma-xil uslubiy maqsadlarda qo‘llanganda boshqa-boshqa mazmunga, vazifaga o‘tib qolishi, morfosintaktik sath bilan lug‘aviy sintaktik so‘z va so‘z shakllariga xos nominativ, konnotativ, kommunikativ vazifalarning uyg‘unlashuvi orqali

xitoy tili iyerogliflari (soʻzlari) tabiatining yanada chuqur yoritilishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, tilning muhim ijtimoiy vazifalari lisoniy birliklarning nutqda qanday maqsad bilan tanlanganligi asosida aniqlanishi mumkin [5].

**XULOSA.** Xitoycha soʻzlardagi polifunksionallik soʻz turkumlari va sintaksis boʻlaklari oʻrtasida qatʼiy bir moslashish yoʻqligiga ishora qiladi hamda bitta soʻzning turli boʻlaklar vazifasida kela olishiga va bunday holatlarda soʻzning xususiyatida (yoki shaklida) oʻzgarish sodir boʻlmasligiga urgʻu beradi. Xitoy tili grammatikasini yaxshi tushunib olish uchun undagi soʻzlar polifunksionalligini oʻrganish nihoyatda muhim hisoblanadi. Albatta, bunda tilning ichki strukturasi, Xan millatining tafakkur qilish usullari, hamda til muhiti katta rol oʻynaydi. Masalan, bola 妈妈 [māmā] oyi deb chaqirganida har xil maʼno tushuniladi: “oyim meni bagʻriga olsin”, “oyim meni quchoqlasin”, “oyim menga taom bersin”, “oyi men qoʻrqapman”, “oyi men bilan oʻynang” kabi. Bu soʻzning aynan qaysi maʼnoda aytilayotganini anglash uchun til muhitini bilish, bolaning xatti-harakatlarini tushunish kerak boʻladi. Shuning uchun tilni tushunish va uni qoʻllash jamiyat tafakkur tarziga bogʻliqdir. Shu maʼnoda, xitoy tili soʻzlarida polifunksionallik mavjudligining asosiy uchta tamoyili mavjud.

Birinchi tamoyil, xitoy tilining ichki omili. 朱德熙 Dju Desi shunday yozadi: “Tilga xoslik chogʻishtirilganda koʻrinadi, agar chogʻishtirilmasa tilga xos xususiyat ham boʻlmaydi [6]. Biz ham ushbu fikrga qoʻshilamiz. Shuning uchun ham xitoy tili jihati boshqa til oilalari bilan muqoyasa qilinganda namoyon boʻladi. Masalan, hind-yevropa tillari oilasi bilan taqqoslaganda, xitoy tilida ikkita xususiyat koʻzga tashlanadi, xitoy tilida soʻzlarning bir boʻgʻinli boʻla olishi hamda xitoy tilida shakl yoʻqligi. Bunda shakl deganda, boshqa tillar kabi ot, sifat, feʼllarning kelishik, jins, son, zamon, shaxs kategoriyalaridagi oʻzgarishlar nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, soʻz turkumlari va gap boʻlaklari oʻrtasida uzviy bogʻlanish mavjud. Aynan shu holat xitoy tili soʻzlarida polifunksionallik mavjudligining ichki omili hisoblanadi.

Ikkinchi tamoyil, Xan millatining anʼanaviy tafakkur qilish usuli. Bu borliqdagi narsa va hodisalarga boʻlgan munosabatni “yurakdan” qabul qilish orqali namoyon boʻladi. Gap tuzishda, asosan, ichki maʼnoning oʻzaro bogʻlanishi muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun ham Xitoyning qadimgi mumtoz asarlari, sheʼrlarida saralangan soʻzlar yordamida boy mazmunli matni uchratish mumkin.

Uchinchi tamoyil, til vaziyatining taʼsiri. Muayyan asarni oʻqiyotganda yoki biron kishi bilan suhbatlashayotganda gapdagi soʻz qaysi maʼnoda kelgani aniq tushuniladi. Shu tariqa, til muhiti ravshanlashadi. Bu holat gapdagi soʻzning tabiatini aniqlashtirishga yordam beradi va notoʻgʻri tushunishning oldini oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гвишиани Н.Б. Полифункциональные слова в языке и речи. – Москва: Высшая школа, 1979. – С. 11.
2. Колшанский Г.В. Вопросы языкознания // О природе контекста. – Москва: Академия наук, 1959. – №4. – С. 48-52.; Крушельницкая К.Г. Очерки по сопоставительной грамматике немецкого и русского языков. – Москва: УРСС, 2019. – С. 109–114.; Шевченко В.Д. Когнитивные аспекты использования полифункциональных лексических единиц в сфере англоязычной деловой коммуникации: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 7.
3. Сюй Хун. Полифункциональные слова в русском языке как проблема русско–китайских словарей: дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 2003.
4. Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлил]. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2003. – Б. 97-98.
5. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. – Москва: Академия наук, 1963. – С. 6.
6. 陈立中. 论汉语实词的多功能性与中国传统思维方式意会特点之关系. – 湘潭: 湘潭大学学报, 1995. – №04. – 页. 1.

## MUNDARIJA

### 07.00.00 - "TARIX"

<i>Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi</i>	MUSTAQILLIK DAVRIDA OLIMPIYA HARAKATI: MILLIY IDENTIFIKATSİYAGA O'TISH	38
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i>	OLIIY TA'LIM TIZIMIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSİYASI	54
<i>Bo'riyev Ibrohim</i>	MUSTAQILLIK SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	66
<i>Atamirzayeva Munavvar</i>	BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SAMARQAND SHAHRI SAVDO TIZIMI VA MINTAQAVIY SAVDO ALOQALARINING TARIXIY-IQTISODIY TAHLILI	96
<i>Mardanov Jasurbek Davran ug'li</i>	XIX–XX ASRLAR TARIXSHUNOSLIGIDA BUXORO AMIRLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY JIHATDAN O'RGANILISHI	114
		124

### 09.00.00 - "FALSAFA"

<i>Rahmatov Nizomiddin Ashur o'g'li</i>	GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA "YASHIL MAKON" MILLIY DASTURINING AHAMIYATI	10
<i>Yaxshiboyev Shavkat</i>	"MADANIYAT" VA "SIYOSIY MADANIYAT" TUSHUNCHALARINING FALSAFIY TAHLILI	58
<i>Beysenov Ulug'bek Bahtiyor o'g'li</i>	IJTIMOIIY MAS'ULIYAT – ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KASBIY VA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI MUHIM OMIL	69
<i>Maxkamov Qodirjon</i>	IJTIMOIIY XOTIRA IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA	104
<i>Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich</i>	EKOLOGIK QADRIYATLAR- TARAQQIYOT OMILI	121
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i>	GLOBALASHUV SHAROITIDA URBANIZATSIYA SIYOSATINI YORITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI	124
<i>Aliqulova Nozima Abduvali qizi</i>	YOSHLARDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING TARBIVAVIY AHAMIYATI	140
<i>Babaxodjayeva Lola Maratovna</i>	O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-MADANIY MODERNIZATSIYASI SHAROITIDA MA'NAVIY YUKSALISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI VA ASOSLARI	200
<i>Xoliqulov Asliddin Habibulloevich</i>	MA'NAVIYAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY, TARIXIY MANBALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI	203
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	IJTIMOIIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	206
<i>Rahmatov Erkin Tagaymuradovich</i>	ALOUDDIN ATTOR HIKMATLI SO'ZLARINING YOSHLAR TARBIVASIDAGI AHAMIYATI	209
<i>Abdulfattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi</i>	MUSTAFO KOMILNING "ASH-SHAMSU MASHRIQOT" ASARIDAGI FALSAFIY G'OYALAR TAHLILI	215
<i>Boygaziyev To'liqin Inatullayevich</i>	HUKMDOR SHAXSINING DAVLAT TIZIMIDAGI MARKAZIY O'RNI	218

### 10.00.00 - "FILOLOGIYA"

<i>Ruzmetova Shahnoza Maxmudovna</i>	RUS VA INGLIZ TILIDAGI FE'LLARNING ASPEKTI VA ZAMONI: QIYOSIY TAHLIL VA METODOLOGIK YONDASHUV	18
<i>Xasanova Gavharxon Erkinovna</i>	NUTQDA OIQISH VA QARG'ISH IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI	23
<i>Жумаева Феруза Рузikuловна</i>	ТРАНСПОЗИЦИЯ ВНУТРИ ГРАММАТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ГЛАГОЛА И ЛГР АДЪЕКТИВОВ	26
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	BRITANIYA XALQ URF-ODATLARINING LINGVOMADANIY TAHLILI	32

<i>Salomova Gavhar Abdinazarovna</i>	TURLI TIZIMLI TILLARDA ABBREVIATURALARNING TILSHUNOSLIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDAGI O'RNII	41
<i>Ergasheva Dilafuz Yuldosh qizi</i>	INGLIZ SIYOSIY NUTQIDA KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARGA DISKURS-ANALITIK YONDASHUV	44
<i>Safarova Dilarom Abdukadirovna</i>	FILM NOMLARI TARJIMASIGA DOIR MUAMMOLAR	47
<i>Madaminov Ilyorbek</i>	MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA SO'Z VA KUY UYG'UNLIGI	50
<i>Raxmatullayeva Dilafuzxon Shuxratovna</i>	O'ZBEK TILIDA "ILM-MA'RIFAT" MAZMUNINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING USLUBIY VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI	63
<i>Aytmuhammetova Aziza</i>	ИНГЛИЗ ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛЛАРИДА СОҢЛАР ВА СОҢ ИФОДАЛАРИНИНГ СТРУКТУР-СЕМАНТИК ШАКЛЛАНИШИ	72
<i>Daminova Kumush Rustam qizi</i>	ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING TRANSFORMATSIYASI	76
<i>Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi</i>	KOGNITIV METAFORANING LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI	85
<i>Madraximova Nazira Yaqubovna</i>	QURBONBOY JIROV REPERTUARI VA O'ZBEK DOSTONCHILIGI	88
<i>Ametova Oydin Komiljanovna</i>	YUSUF XOS HOJIBNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	107
<i>Shodikulova Aziza Zikirayevna</i>	ANATOMIK VA FARMATSEVTIK TERMINLARNING PAYDO BO'LISHI	127
<i>Iskenderova Elizaveta Kamalattidinovna</i>	ҚАРАҚАЛПАҚ ҲЭМ ИНГЛИС ТИЛИНДЕГИ ЗООНИМ ТЕҶЕЎЛЕРДИҢ УНАМЛИ ҲЭМ УНАМСЫЗ МАЗМУНДАҒЫ КОНЦЕПТЛЕРИ	130
<i>Omirbaev Janibek Quwatbay uli</i>	TILEWBERGEN JUMAMURATOV TIŇ EPIKALIQ POEZIYASINDA QAHRMAN OBRAZI	134
<i>Muzaffarov Kamoliddin Abdusalom o'g'li</i>	HARBIY LEKSIKANING LISONIY VA USLUBIY TADQIQI ("Kleoptra" romani misolida)	137
<i>Djurakulova Gulnoza Shavkatovna</i>	TURKIY XALQLAR EPOSALARIDA OT OBRAZI BILAN BOG'LIQ EPIK AN'ANALAR	143
<i>Asqarova Komila Ergashevna</i>	INGLIZ TILI O'QITISH JARAYONIDA MUTAXASSISLIKKA OID ATAMALAR (SO'ZLARNI) QO'LLASH USULLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI (TIBBIY TA'LIM YO'NALISHI MISOLIDA)	152
<i>Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi</i>	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIMLAR BILAN IFODALANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR	163
<sup>1</sup> <i>Xakimova Farida</i> <sup>2</sup> <i>O'razova Inobad</i>	"DUNYONING ISHLARI" ASARINING BADIY-FALSAFIY TALQINI VA "ILTJO" HIKOYASINING MAZMUN-MOHIIYATI	179
<i>Ataev Ulmasjon Ergashevich, Homidova Shoxista Akbar kizi</i>	ГОВОРЯЩИЕ ФАМИЛИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. П. ЧЕХОВА И ИХ ЗНАЧЕНИЯ	185
<i>Ergasheva Kamola Mirzoxid qizi</i>	XIV ASR O'ZBEK ADABIYOTIDA RIVOYATLARNING KOMPOZITSION QURILISHI ("QISSASI RABG'UZIY" VA "NAHJUL FARODIS" ASARLARI MISOLIDA)	193
<i>Valieva Laylo, Hужанова Озода</i>	ВОПРОСЫ О ЦЕННОСТЯХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКОЯЗЫЧНЫХ ПИСАТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНА	197
<i>Rahimova Shahzoda Do'stmuradovna</i>	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUHABBAT VA NAFRAT KONSEPTIGA OID MAQOLLARNING MENTAL XUSUSIYATLARI	212
<i>Artikova Ziyoda Zaynitdinovna</i>	XITOIY TILI SO'ZLARIDAGI POLIFUNKSIONALLIK TAMOIYILLARI VA 把 "BA" IYEROGLIPI	221
<b>12.00..00 – "YURIDIK FANLAR"</b>		
<i>Sayimov Otabek Kurashovich</i>	ЛИЦЕНЗИЯЛАШ ВА ХАБАРДОР ҚИЛИШ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИ, НОҚОНУНИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БИЛАН ШУҒУЛЛАНГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК АСОСЛАРИ	3
<i>Шермаматова Мафтунa Шоқир кизи</i>	СОГЛАШЕНИЕ WTO ОБ УПРОЩЕНИИ ПРОЦЕДУР ТОРГОВЛИ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ	14